Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

В данном направлении могут возникнуть препятствия и можно привести пути их преодоления.

Зелёные преобразования сталкиваются с рядом вызовов: от высокого первоначального финансирования до сопротивления со стороны традиционных отраслей. Решение этих проблем требует:

Инвестиций в исследования и инновации, чтобы сделать зелёные технологии более доступными.

Повышения осведомлённости населения о важности устойчивого развития.

Международного сотрудничества для реализации глобальных инициатив.

В заключении следует отметить то, что содействие зелёным преобразованиям — это не просто тренд, а необходимость, обусловленная вызовами современности. Чем быстрее человечество адаптируется к принципам устойчивого развития, тем выше шансы на сохранение планеты для будущих поколений. Каждый шаг на пути к зелёному будущему — это инвестиция в наше общее благополучие.

Использованная литература:

1. Муньос, М. Д. С. (2022). Зелёное развитие как необходимость и перспектива развития экономики для Колумбии.

2. Кордович, В. И. (2020). Проблемы финансирования зелёной экономике. In ФИНАНСОВЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ (pp. 66-71).

MAMLAKATIMIZDA INNOVATSION SALOHIYATDAN SAMARALI FOYDALANISHNING DAVLAT VA BOZOR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Ergashev Alijon Hojimamatovich
Farg‘ona davlat universiteti PhD., dots.
alijon.ergashev@bk.ru

Annotatsiya. Ma’lumki, innovatsiyalarni davlat tomonidan bevosita moliyalashtirishning ustuvor yo‘nalishlari odatda, tavakkalichilik darajasi o‘ta yuqori bo‘lib, katta xarajat va ularni qoplash uchun uzoq muddat talab qiladigan, tijorat yo‘nalishlari noaniq bo‘lgan, manfaatdorlik darajasi xususiy sektorga to‘g‘ri kelmaydigan sohalarga qaratiladi. Bundan tashqari, davlat o‘zi asosiy xaridor bo‘lib, yuqori texnologik xususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi sohalarda olib borilayotgan ITTKI larini yoki jahon bozorida raqobat kuchayishi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar zarar ko‘rishi aniq bo‘lib qolgan sharoitlarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda bevosita usuldan foydalanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur ishda mamlakatimizda innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishning davlat va bozor mexanizmlari rolini oshirish hamda ushbu masalaga oid istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Innovatsiyalar, innovatsion salohiyat, iqtisodiyot, davlat mexanizmi, bozot mexanizmi, raqobat, xususiy sektor, barqaror o‘sish, farovonlikni ta’minlash, texnologik xususiyatlar, barqaror rivojlanish, tavakkalichilik.

Keyingi yillarda rivojlangan mamlaktalarda yuqori ilm talab qiluvchi ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari bevosita moliyalashtirishdan bilvositaga o‘tmoqda. Chunki, amaliyot bilvosita moliyalashtirish usulining yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda “davlatning faol aralashuvi”

Published: 23.12.2024

Cite this article: Ergashev Alijon Hojimamatovich (2024). Mamlakatimizda innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishning davlat va bozor mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1108

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

strategiyasidan Gollandiya, Yaponiya, Frantsiya va boshqa davlatlarda foydalanmoqda. Uni amalga oshirishda innnovatsion siyosatning quyidagi tamoyillariga amal qilinadi:

-birinchidan, iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat hisobga olinadi;

-ikkinchidan, ichki va tashqi siyosatning me’yoriy-huquqiy asoslari va qonunchilik tizimi tubdan isloh qilinadi;

-uchinchidan, bir tomondan davlat boshqaruv organlari, boshqa tarafdan, innovatsiyalarni taklif qiluvchilar va iste’molchilari bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatiladi;

-to‘rtinchidan, milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga yordam beruvchi muhim loyiha va dasturlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

“Markazlashmagan boshqaruv strategiyasi” (AQSh, Angliya va b.) nisbatan murakkab mexanizmga ega bo‘lib, unda davlat asosiy rolni o‘zida saqlab qoladi, lekin, tartibga solishda qattiq ma’muriy vositalarni qo‘llamaydi. Ushbu strategiyaning asosiy yo‘nalishlari innovatsion soha ishtirokchilari faolligini oshirishga qaratilgan sharoitlarni yaratish (soliq, moliyaviy va boshqa imtiyozlar), davlat resurslarini ajratish orqali strategik novatsiyalarga talabni shakllanishtirish, innovatsion soha infratuzilmasi va novatsiyalarni yaratishda davlat sektorining faol ishtirokini ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi.

“Aralash” strategiyadan iqtisodiyotning asosiy qismini davlat sektori tashkil qiladigan va innovatsion sohaning eksportbop bo‘lishini qo‘llab-quvvatlaydigan Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) kabi mamlakatlar foydalanadi. Bu yerda davlat korxonalariga nisbatan faol aralashuv, boshqalarga (xususiy, jamoa va hkz.) esa tartibga solishning markazlashmagan strategiyasi qo‘llaniladi.

Mamlakatimiz tomonidan innovatsion va ilmiy-texnik sohada amalga oshirilayotgan siyosat tavsifiga ko‘ra “aralash” strategiya qo‘llanilmoqda va hozirgi kunda mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish respublika darajasidagi yirik loyihalar doirasida amalga oshirilmoqda. Bu jarayonga asosan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari jalb etilmoqda. Amalga oshirilgan tadqiqotlar respublikada innovatsion salohiyatni oshirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat ekanligini ko‘rsatdi:

1. Innovatsion faoliyatni rivojlantirishni muvofiqlashtirish. Bunda davlat oldida innovatsion jarayonlar rivojlanishining strategik yo‘nalishlarini aniqlab olish va ularning samarali amalga oshirilishi ta’minlash uchun zamonaviy talablarga to‘liq javob beradigan shart-sharoitlar yaratish vazifasi turadi.
2. Innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash. Bu ularning faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, me’yoriy-huquqiy, mafkuraviy va boshqa turdagi usullar majmuidir.
3. Innovatsion jarayonlar sohasida samarali amal qiluvchi huquqiy bazani yaratish. Bunda nafaqat ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlarga mos ravishda tuzatishlar kiritilib, o‘z barqarorligini saqlab turadigan qonunchilikni, balki, shu bilan birga, unga amal qilinishini ta’minlovchi real mexnizmlarni shakllantirish zarur bo‘ladi [1].
4. Ilmiy-innovatsion infratuzilmani shakllantirish. Bunda davlat tashkilotlari innovatorlarga huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, biznes-konsalting va boshqa xizmatlarini ko‘rsatadi. Buning uchun davlat jahon innovatsiyalar bozorida milliy innovatsiyalarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida xalqaro andozalar darajasida yangiliklarni tarqatishning asosiy kanallaridan biri bo‘lgan axborot kommunikatsiya tizimining samarali faoliyat yuritishini ta’minlashi zarur.

Innovatsion infratuzilmani shakllantirish doirasida davlat oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim dasturlari tuzilishi innovatorlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish

va mutaxassislarning innovatsiyalarga bo‘lgan ta’sirchanligini oshirishga yordam berishi lozim. Shuningdek, davlat kadrlar tayyorlashda universal va maxsus bilimlar o‘rtasida ma’lum mutanosiblikni ta’minlashi hamda innovatsiyalarni tijoratlashtirish bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lgan, butun hayoti davomida doimiy ravishda o‘z bilimini oshirib borishga intiluvchan mutaxassislarni tayyorlashga harakat qilishi lozim.

5. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish. Bunda asosiy e’tibor innovatsion jarayon ishtirokchilari o‘rtasida sog‘lom va kuchli raqobat muhitini shakllantirish hamda ularga turli xil moliyaviy imtiyozlar berish asosida qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi. Ya’ni, yangi turdagi mahsulot yoki texnologiyalarni o‘zlashtirishga qiziqishi bo‘lmagan korxona, an’anaviy “bozor” sharoitida olgan daromadlarini ITTKIni amalga oshirish yoki ularni moliyalashtirishga sarflamaydi.

6. Ijtimoiy va ekologik sohalarga yo‘naltirilgan innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash. Bu yerda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikkita holatni kuzatish mumkin: bir tomondan, davlatning o‘zi ijtimoiy barqarorlik va ekologik muvozanatni ta’minlovchi innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlasa, ikkinchi tomondan esa, ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog‘liq salbiy oqibatlarni faqatgina davlat miqyosida bartaraf etish mumkin.

7. Innovatsion faoliyatning ijtimoiy mavqeini oshirish. Bunda davlat ilmiy-texnik yutuqlar va innovatsiyalar bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etadi, innovatorlarni rag‘batlantiradi, ularni ijtimoiy himoya qiladi va hkz.

8.Ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini olib borishda asosiy kapitalni takror hosil qilish jarayonini nazorat qilish va tartibga solish. Tadqiqotlar respublikadagi ko‘pchilik sanoat korxonalari asosiy kapitalining katta qismi eskirganligi ko‘rsatdi. Respublika iqtisodiyotining sanoat tarmoqlari bo‘yicha asosiy ishlab chiqarish fondlarining yangilanish koeffitsiyenti yildan-yilga pasayib 2022 yilda 9,3 % ni tashkil qilgan (2015 y. 12,4 %). Ularning ishdan chiqish koeffitsiyenti 2015 yildagi 2,7 % dan 2022 yilda 3,0 % ga ortgan [6].

Bozor mexanizmlaridan oqilona foydalanish orqali mamlakatda innovatsion salohiyatni oshirish imkoniyati juda kengdir. Buning uchun eng avvalo, xo‘jalik yurituvchi sub’yekt (hudud, tarmoq, korxona, tashkilot va hkz.)larning bozor qonun-qoidalari va ularning amal qilish mexanizmlariga to‘liq moslashishi zarurligiga ahamiyat berish lozim. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat innovatsion salohiyatini rivojlantirishni samarali innovatsion marketing strategiyasi va taktikasini ishlab chiqmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi [3;4;5]. Innovatsiyalarni tijoratlashtirish va amaliyotga joriy qilish jarayonlarini boshqarish vazifalari strategik (har bir bosqich tugallanganidan so‘ng innovatsiyalarning harakat yo‘nalishlarini tanlash, moliyalashtirish manbalari va hamkorlar izlash, moliyaviy ta’minot rejasini ishlab chiqish) va taktik (marketing, reklama, sotuvlarni amalga oshirish, sotuv jarayonida innovatsion mulkni boshqarish) bo‘lishi mumkin [2].

Innovatsiyalarni tijoratlashtirish innovatsion tovar yoki xizmatni yaratish va ularni bozorga olib chiqish jarayonlaridan iborat bo‘lib, u bir nechta bosqichlarni bosib o‘tadi. Birinchi bosqich o‘z ichiga quyidagi jarayonlarni oladi:

- innovatsion mahsulot yaratishga kirish jarayoni. Bunda ushbu jarayon kontseptual ahamiyatga ega bo‘lib, uning asosini yangi mahsulot g‘oyasini asoslash imkonini beruvchi fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari (ITI) tashkil etadi.
- innovatsion mahsulotning texnik tavsifini tekshirish jarayoni. Ushbu jarayon tajriba-konstruktorlik ishlari davomida yangi mahsulot yaratish texnologiyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lib, unda yangi mahsulot prototipi (namunasi) paydo bo‘ladi.
- innovatsion mahsulotning sanoatda qo‘llanilishini tekshirish jarayoni. Bunda yangi mahsulot ishlab chiqarishning tashkiliy-boshqaruv va moddiy-texnik sharoitlari yaratiladi hamda ayrim holatlarda yangi ishlab chiqaruvchi innovatsion korxona yaratiladi.

- innovatsion mahsulotning bozorda sotilishini tahlil qilish jarayoni. Bu innovatsion mahsulot yaratish hayot tsiklining ikkinchi bosqichi (bozorga olib chiqish) bilan mos tushadi va tovar yoki xizmatni yaratishdan boshlab iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi.

Ayrim korxonalar o‘z salohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsion jarayonni amalga oshirish mexanizmini tuzib chiqishadi. Birinchidan, odatda, hozirgi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar ekspluatatsion xususiyatlari bo‘yicha Osiyo, Yevropa, MDHdagi ayrim mamlakatlardagi muqobil mahsulotlarga nisbatan ancha past darajada. Lekin, shunday bo‘lsa ham hozircha arzon resurslar, ya’ni, arzon ishchi kuchi, ishlab chiqarish texnologiyalari va ishlanmalarga qilinadigan investitsiyalar miqdorining nisbatan kamligi hisobiga mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha ular bilan qandaydir darajada raqobatlasha oladi. O‘zbekiston xalqaro savdo tashkilotiga a’zo bo‘lsa, protektsionizm siyosatini amalga oshirish imkoniyati sezilari darajada kamayadi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda Jahonning eng yirik 500 ta kompaniyalar ro‘yxatiga kirgan bironta yirik korxona yo‘q. Shuning uchun ham respublikaning jahon bozorida raqobatlashish imkoniyati juda kam. Shuning uchun ham chet el korxonalari nisbatan texnologik innovatsiyalarga ko‘proq sarmoya kiritish imkoniyatiga egadir va ular shunday qiladilar ham.

Uchinchidan, jahon iqtisodiyotida intensiv globalizatsiya jarayoni jadallashmoqda. Bu jarayondan yirik kompaniyalar manfaatdor, chunki, globalizatsiyaning jadallashuvi bozorlar ko‘lamini kengaytiradi, shuning uchun ham bu jarayonni to‘xtib bo‘lmaydi.

Fikrimizcha, mavjud murakkab iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston korxonalari uchun injiniring va ishlab chiqarish funktsiyalarini o‘zida mujassamlashtirish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Bunday yo‘nalishda innovatsion jarayonni boshqarishda korxonada yangi bozorlarni yaratish yoki mavjudlaridagi to‘liq qondirilmagan talabni aniqlash imkonini beruvchi strategik va taktik vazifalar shakllangan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. “Интеллектуал мулк тўғрисидаги қонун ҳужжатлари такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонунларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”. 2011 йил 26 декабр, ЎРҚ-312-сон,

http://lex.uz/docs/1925810?query=фуқаролик%20тўғрисида.

2. Вегер Л.А. Экономический эффект и управления НИОКР. // М.: Наука. 1992. - С.316

3. Демченко А. Маркетинговые инновации в условиях кризиса. / А.Демченко. // Маркетинг. - 2009. - №1 - С. 44-50.

4. Казанцев А.К. Основы инновационного маркетинга. Теория и практика. Учебник для вузов. 2-е издание, переработанное и дополненное. / А.К.Казанцев. – М.: Экономика, 2008.

5. Пермичев Н.Ф., Палеева О.А. Маркетинг инноваций: Учебное пособие. – Н. Новгород: НГАСУ, 2007.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar. 2023-yil yanvar - dekabr

QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH